

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi:
№ _____
2008 yil «__» _____

O‘zbekiston Respublikasi Oliy
va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2008 yil «__» _____ dagi
«__»- sonli buyruq bilan
tasdiqlangan

**MAXSUS (TURKIY) FILOLOGIYAGA KIRISH
fanining**

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	-	Gumanitar fanlar va san’at
Ta’lim sohasi:	220000	-	Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5220100	-	Filologiya (sharq tillari)

Toshkent - 2008

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2008 yil «___» _____ dagi «___»- son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

T u z u v c h i:

Sodiqov Q. – «Mumtoz filologiya» kafedrasining mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

T a q r i z c h i l a r:

Omonov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti «Turkiyot» kafedrasining mudiri v.b., filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Rafiev A. – O'zbekiston Milliy universiteti "Fakultetlararo o'zbek tili va turkiy tillar" kafedrasining dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2008 yil _____dagi «___»- sonli bayonnoma)

Kirish

Mazkur fan turk filologiyasi bo'limining talabalariga o'qitiladi. "Turkiy filologiyaga kirish" fani bo'lg'usi turkshunos mutaxassislar tayyorlash uchun o'ta muhim sanaladi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Mazkur fanning maqsadi talabalarni turkiy xalqlarning etnogenez masalasi, ularning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, yozma yodgorliklar, mazkur manbalarning turkiy tillar va adabiyotlarining rivojida mavqei, hozirgi turkiy tillarning umumiy tasnifi kabi turkshunoslikning o'ta kerakli masalalari bilan tanishtirishdir. O'z ta'lim yo'nalishining o'zagidan bilim oladilar. Shu bois, mazkur fan sharqshunoslik institutining turk filologiyasi bo'limida asosiy fanlar qatorida o'qitiladi. Fan bir semestrda belgilangan. U ma'ruza va mashq darslari (amaliyot) shaklida uyushtiriladi. Ma'ruzada yo'nalishning muhim nazariy ma'lumotlari o'qitiladi. Mashq darslari seminar yoki muayyan mavzuni chuqurlashtirishga qaratiladi. O'rganiladigan materialning nihoyatda kengligi va dars soatlarining cheklanganligini nazarda tutib, ayrim mavzularni talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun ham topshirish mumkin.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Turkiy filologiyaga kirish" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- til va etnos; o'rganilayotgan xalqning etnogenez masalalari; o'rganilayotgan sharq tili va uning tasnifini **bilishi kerak;**

- o'rganilayotgan tilning bir til oilasiga mansub boshqa tillar bilan qarindoshligini belgilovchi omillarni ajrata olish **ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;**

- adabiy tilning yuzaga kelishi va tarixiy takomili; o'rganilayotgan sharq tilining taraqqiyot bosqichlari; o'rganilayotgan tilning yozma yodgorliklari, ularning til va adabiyot tarixini

o'rganishdagi o'rni; o'rganilayotgan sharq tilining dialektal xususiyatlarini ajrata olish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Turkiy filologiyaga kirish” asosiy ixtisoslik fanlari qatorida turuvchi fan hisoblanib, 3- semestrda o'qitiladi.

Ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun o'quv rejasida ko'zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O'zbekiston tarixi, g'arb tili, o'zbek tili), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (geografiya, etnografiya), umumkasbiy (asosiy sharq tili, tilshunoslikka kirish, qo'shimcha sharq tili v.b.) va ixtisoslik fanlari (AShT leksikologiyasi, AShT nazariy grammatikasi v.b.)dan yetarli bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Maktabgacha ta'lim muassasasi, o'rta umumta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida faoliyat olib borilganda tilshunoslikka kirish kursidan olingan bilimlar qo'l keladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, sharq filologiyasi bo'yicha bakalavr tayyorlash bosqichining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ilmi toliblarning turkiy filologiyaga kirish fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va yetakchi usullarini qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitish jarayonida darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, dars yo'rug'lari, tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Til va etnos, o'rganilayotgan xalqning etnogenez masalalari, o'rganilayotgan sharq tili va uning tasnifi, o'rganilayotgan tilning bir til oilasiga mansub boshqa tillar bilan qarindoshligini belgilovchi omillar, adabiy tilning yuzaga kelishi va tarixiy takomili, o'rganilayotgan sharq tilining taraqqiyot bosqichlari, o'rganilayotgan tilning yozma yodgorliklari, ularning til va adabiyot tarixini o'rganishdagi o'rni, o'rganilayotgan sharq tilining dialektal xususiyatlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

Turk etnogenezi masalasi. Turkiy tillarning tasnifi

“Turkiy filologiyaga kirish” fanining ob’ekti, uning maqsad va vazifalari.

Yozma yodgorliklarning xalq tili va ma'naviy madaniyati tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Turkiy filologiya, turkshunoslik fanining vujudga kelishi va uning tarixiy bosqichlari. Til va etnos. Turkiy xalqlarning etnogenez masalalari. Qadimgi manbalarda keltirilgan O'rta va Markaziy Osiyo turkiy xalqlari to'g'risidagi ma'lumotlar. Qadimgi sak (=iskif//skif), usunlar, xunlarning etnik tarkibi.

Hozirgi turkiy xalqlar. O'rta va Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar. Ularning madaniy-etnografik tarixi. Anato'li turklari va ularning kelib chiqishi.

Turkiy tillar va ularning tasnifi. Turkiy tillarning qardoshligini belgilovchi omillar. Turkiy tillarning qurumi va ularning tipologik tasnifi. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida turkshunoslikda amalga oshirilgan tasniflar (I.N. Berezin, V.V. Radlov, F.E. Korsh tasnifi). A.N. Samoylovich, V.V. Bogorodiskiy, S.E. Malov, N.A. Baskakov tasnifi. G'arb olimlaridan I. Bensing, K. Menges tasniflari.

Turkiy yozma yodgorliklar

Meloddan burungi V-VI yuzyilliklar va melodning boshlarida O'rta va Markaziy Osiyoda yozuv madaniyati. Qadimgi turk yozuvlari: ko'k turk, sug'd, uyg'ur, moniy, braxma, suryoniy, arab yozuvlari, ularning qo'llanuv tarixi.

Brahma xati, uning turk-buddistlar orasida yoyiluv. Moniy, suryoniy yozuvlari va ularda qolgan yodgorliklar.

Ko'k turk yozuvi va uning yodgorliklari. Ko'k turk yozma yodgorliklarining topiluv va o'rganilish tarixi. Ko'k turk xatining kelib chiqishi (genezisi).

Urxun va Yenisey atroflaridan topilgan eramizning VI-VIII asrlariga tegishli bitiglar. Ko'k turk davri yodgorliklarining xati turkiy run yozuvining eng takomillashgan shakli sifatida.

Ko'k turk obidalarida qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy adabiyotning yodgorliklari sifatida. Qadimgi turkiy yozma adabiy til, uning me'yorlarining shakllanishi va taraqqiyotida, yozma uslublarning muayyan qolipga tushuvida ko'k turk yozuvining o'рни.

Ko'k turk bitiglarida tarixiy-adabiy manba sifatida. Bitiglar turkiy yozma adabiyotning eng ko'rina asarlaridir. Qadimgi turk adabiyotida maktab masalasi: urxun hamda yenisey adabiy maktablari. To'nyuquq, Yo'llug' tigin singari muarrix va adiblarning turkiy adabiyot tarixidagi xizmatlari.

Uyg'ur yozuvi va uning yodgorliklari.

Uyg'ur xatining qo'llanuv tarixi. Islomga qadar bo'lgan davrda uyg'ur xatida bitilgan obidalar. Turk budda, moniy, nasturiy yodgorliklari. Turk-budda madaniyati. Uyg'ur yozuvli manbalar qadimgi turk adabiyoti va adabiy tilining yodgorliklaridir.

Turk-budda adabiy muhiti. Tarjima asarlar va ularning turkiy filologiya tarixidagi o'рни. Turk-budda adabiy va diniy terminologiyasining shakllanishi. Budda asarlarining uslubi masalasi.

Islom muhitida uyg'ur xatining arab yozuvi bilan tengma-teng, parallel qo'llanuvi. Uyg'ur xatining turk davlatlari ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'рни. Oltin O'rda va temuriylar davlatida uyg'ur yozuvining ishlatilishi.

Arab xati va unda bitilgan turkiy yodgorliklar. Turkiy xalqlar arab xatini o'zlashtirishining ijtimoiy-siyosiy sabablari. Arab xatidagi ilk turkiy yodgorliklar. "Devonu lug'atit turk"dan o'rin olgan turkiy so'zlik va matnlar. "Qutadg'u bilig", "Hibatu-l-haqoyiq", turkiy "Tafsir", "Muqaddamatu-l-adab"dagi turkiy so'zlik, "Qisasi Rabg'uziy" va boshqa asarlar.

Qadimgi va hozirgi turkiy tillar

Eski turkiy til va uning hozirgi turkiy tillarning shakllanuvda tutgan o'рни.

"Chig'atoy turkchasi"/"Chig'atoy turkiysi" atamasi. Uning hozirgi o'zbek tiliga munosabati.

Usmonli turkchasi. Uning hozirgi turk tilining yuzaga kelishidagi o'рни.

Hozirgi turkiy tillar.

Amaliy mashg'ulotlarni uyushtirish bo'yicha ko'rsatma va yo'llanmalar

Amaliy mashg'ulotlarda ilmi toliblar kursning muhim qirralarini amaliy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratadilar.

Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular:

1. Turkiy xalqlarning etnogenezi.
2. Hozirgi turkiy tillarni tasniflash uchun asos bo'luvchi belgilar.
3. Turkiy yozuvlar tarixi.
4. Qadimgi turkiy til yodgorliklari.
5. Ko'k turk yodgorliklari - adabiy manba sifatida (Matnlardan misollar olib, tahlil qilish).
6. Eski turkiy til davri yodgorliklari, ularning til va badiiy xususiyatlari.
7. "Chig'atoy turkiysi" va uning o'zgachaliklari.
8. Turkiy tillar taraqqiyotining keyingi bosqichlari.
9. Hozirgi turkiy tillar. Turkiy adabiyotlar.

Amaliy darslarni uyushtirish bo'yicha kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va yo'llanmalar ishlab chiqiladi. Unda ilmi toliblar ma'ruza darslarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalar, dars yo'rug'lari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar ilmiy faolligini oshirish, mavzular bo'yicha ilmiy ma'ruzalar tayyorlash tavsiya etiladi.

Laboratoriya ishlarini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida laboratoriya mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

Kurs ishini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida kurs ishi ko'zda tutilmagan

Mustaqil topshiriqlarni uyushtirishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va dars yo'rug'laridan kurs mavzularini o'rganish;

- turkiy filologiyaga kirish bilan bog'liq mavzularni o'zlashtirish;

- hozirgi va qadimgi turkiy xalqlarni bilish;

- turkiy xalqlarning joylashuv o'rinlarini bilish;

Mustaqil topshiriqlarning mavzulari:

1. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq manbalar.

2. O'zbek etnografiyasi.

3. Turk (yoki boshqa bir qardosh) tilidan misollar olib, uni o'zbek tili bilan chog'ishtirib, tillarimizning qardoshlilikini isbotlash.

4. Ko'k turk bitig'lari adabiy va tarixiy manba sifatida.

5. Turkiy tarjima adabiyotining vujudga keluvi. Moniy turklari va turk budda muhitida yaratilgan tarjima asarlar.

6. Musulmon-turk muhitida yaratilgan asarlar. Turkiy madaniyat tarixida islomning o'rni.

7. O'zbek tilining tarixiy atalishi.

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti

Ushbu fanni o'rgatish davomida o'qitishning zamonaviy usullari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan.

- turkiy xalqlarning etnogeneziga tegishli mavzularni o'zlashtirishda kompyuter texnologiyalari ko'magida taqdimot va elektron-didaktik vositalar qo'llaniladi;

- turkiy xalqlarning qardoshligi bilan bog'liq masalalarni o'tganda o'qitishning yetakchi pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi;

- hozirgi turkiy xalqlar va tillar mavzularini o'qitganda kompyuter texnologiyalari ko'magida taqdimot va elektron-didaktik hamda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qo'llaniladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

1. *Abdurahmonov G'., Rustamov A.* Qadimgi turkiy til. Toshkent, 1982.

2. *Aliev A., Sodiqov Q.* O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

3. *Omonov Q.* "Turkiy filologiyaga kirish" fanidan dars yo'rug'chisi. – Turkiyot kafedrasining yo'rug'i. Turk filologiyasi bo'limining talabalari uchun qo'llanma. Toshkent, 2008. 320-342 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. *Amanjolov A.S.* K genezisu tyurkskix run.// "Voprosi yazikoznaniya". 2. M., 1978. S.76-87.

2. *Amanjolov A.S.* Tyurkskaya runicheskaya grafika (metodicheskaya razrabotka). Alma-Ata. 1980 (ch.1), 1981 (ch.2), 1985 (ch.3).

3. *Amanjolov A.S.* Turki filologiyasi jene jazu tarixi. Almati, 1996.

4. *Amanjolov A.S.* Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma. Almati, 2003.

5. *Baskakov N.A.* Tyurkskie yaziki. M., 1960.

6. *Baskakov N.A.* Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazikov. M., 1969.

7. *Batmanov I.A., Aragachi Z.B., Babushkin G.F.* Sovremennaya i drevnyaya yeniseika. Frunze. 1962.

8. *Borovkov A.K.* Leksika Sredneaziatskogo tefsira XII-XIII vv. M., 1963.

9. *Vasilev D.D.* Graficheskiy fond pamyatnikov tyurkskoy runicheskoy pismennosti Aziatskogo areala. M., 1983.

10. *Diringer D.* Alfavit. M., 1963.

11. *Djumagulov Ch.* Epigrafika Kirgizii, 1. Frunze, 1963.

12. *Istrin V.A.* Vozniknovenie i razvitie pisma. M., 1965.

13. *Kononov A.N.* Grammatika tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-XI vv.. L., 1980.

14. *Malov S.E.* Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.

15. *Malov S.E.* Yeniseyskaya pismennost tyurkov. M.-L., 1952.

16. *Malov S.E.* Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.

17. *Nasilov V.M.* Yazik orxono-eniseyskix pamyatnikov. M., 1960.
18. *Nasilov V.M.* Drevne-uygurskiy yazik. M., 1963.
19. *Radlov V.V.* Atlas drevnostey Mongolii. Trudi Orxonskoy ekspeditsii, I-IV. SPb., 1882, 1893, 1896, 1899.
20. *Radlov V.V.* K voprosu ob uygurax. SPb., 1893.
21. *Ramstedt G.I.* Vvedenie v altayskoe yazikoznanie. Morfologiya. M., 1957.
22. *Ryasyanen M.* Materiali po sravnitelnoy fonetike tyurkskix yazikov. M., 1955.
23. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. Fonetika. M., 1984.
24. *Sodiqov Q.* Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini. Toshkent, 2004.
25. *Sodiqov Q.* Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. Toshkent, 2006.